

## AD'YEKTIVATLARNING POLIFUNKSIONALLIGI

**Sulaymonova Gulbahor Aliturayevna**

*Yangiyo'l shahar I-son kasb-hunar maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sifatlarning matn talabi bilan ot vazifasida kela olishligini o'rGANISH maqsad qilib qo'yilgan. Ad'yektivatlik vazifasini, asosan, konkret ma'noli otlar bajaradi. Sifat vazifasini bajaruvchi otlar o'zlarining asl ma'nolaridan ancha uzoqlashadi, ya'ni funksional-semantic ma'no bildiradi. Shu xildagi ad'yektivatlarni ifodalash maqsadida xilma-xil ma'nolarni ifodalab keladigan otlardan foydalaniladi. Ot turkumiga oid so'zlar ko'chma ma'nolarda qo'llanganda, denotativ ma'noni ifodalash bilan birga, konnotativ ma'noni ham ifodalab, polifunktionallikni hosil qiladi.

**Kalit so'zlar:** *ad'yektivat, ad'yektivatlar sinonimiysi, ad'yektivatlar antonimiysi, aniqlovchi, kesim.*

Tilshunoslikda otlarning sifat vazifasida kelish holati «ad'yektivatsiya» deb ataladi. Ot turkumiga o'tgan sifatlarning ma'nolarida o'zgarish ro'y berganligi kabi sifat vazifasini bajaruvchi otlarning ma'nolarida ham muayyan o'zgarishlar ro'y beradi. Matn talabi bilan ko'pgina sifatlar ot vazifasida kela oladi, ya'ni ot turkumiga mansub ma'noni – predmet nomi ma'nosini ifodalaydi. Biroq otlarning barcha turi ham sifatlashavermaydi. Ad'yektivatlik vazifasini, asosan, konkret ma'noli otlar bajaradi. Sifat vazifasini bajaruvchi otlar o'zlarining asl ma'nolaridan ancha uzoqlashadi, ya'ni funksional-semantic ma'no bildiradi. Chunki ot turkumidagi so'z narsa-predmetning nomini bildirsa, ad'yektivat shu narsa-predmetning belgisini ifodalash funksiyasini bajaradi. Shu xildagi ad'yektivatlarni ifodalash maqsadida xilma-xil ma'nolarni ifodalab keladigan otlardan foydalaniladi. Shunday yo'l bilan ad'yektivatlarning leksik-semantic vazifalari nimalardan iborat ekanligini aniqlash imkonи tug'iladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Ad'yektivat «biror narsadan qurilgan, biror narsadan quriladigan» ma'nosini bildiradi: *Eshik va derazalarini alanga olayotgan kichkina g'isht imoratning tomida kimir dam-badam avtomat otayotibdi* (A.Qahhor). *Ko'chaning ikki tomoni buzuq-yoriq paxsa devor, faqat ko'chaning boshida kichkina bir eshik* (Oybek). *Faqat kanal emas, balki to'g'onlar, shlyuzlar, temir-beton uylar ham bir yo'la va birdaniga qurilayotganga o'xshaydi* (I. Rahim).

2. Ad'yektivat «biror narsadan yasalgan, yasaladigan» ma'nosini ifodalaydi: *Cho'yan qozon tez qizimas, qizisa ham tez sovimas* (Maqol). *Qambar ixcham, yarqiroq mis chilimni olib keldi* (Oybek). *[Japaqning] Chayir va baquvvat gavdasi chiroq shu'lasida cho'yan haykal kabi yiltillar edi* (A. Muxtor). *Nigoroyim sopol laganda palov keltirib, hammalari birga oshga o'tirdilar* (A. Qodiriy).

3. Ad'yektivat «biror narsaga mo'ljallangan, belgilangan» ma'nosini anglatadi: *Otabek shoshib tokchadan xitoyi norin tovoqni oldi* (A. Qodiriy). *O'nta choy qoshiq sotib oldim* (So'zlashuvdan). *Tushlikka zang urilganda Zokir ota non xaltasini ko'tarib kirib keldi* (A. Qahhor).

4.Ad'yektivat «biror narsadan tikilgan, to'qilgan» ma'nosini ifodalaydi: *Qiz paranji o'rniqa churuk bir yaktak yopingan edi. Egnida chit ko'ylak* (Oybek). Zamira ko'pchilikning talabi bilan o'rnidan turar ekan, qizil *atlas* ko'ylagining rangi yuziga urganday qip-qizarib ketdi (P.Qodirov). *Ikki qiz chayqalgan choynak-piyolalarini, tuyu yungidan to'qilgan shol dasturxonga o'rangan nonlarni keltirib mehmonlar oldiga qo'ydilar* (S. Ayniy).

5.Ad'yektivat «biror narsadan pishirilgan, tayyorlangan» ma'nosini anglatadi: «*Hozir sizlarga quling o'rgilsin qaynatma tovuq sho'rva qilib beraman*», – dedi Ahmad (F. Musajonov). *Sut-qaymoqqa yo'g'rilgan jimjimador patir kulchalar, hali sovumagan tandir somsalar hammasi farosat, did bilan qo'yilgan* (S. Anorboyev).

6.Ad'yektivat «biror narsa-predmetga o'xshash» ma'nosini ifodalaydi: *Eshonning bezraygan qo'y ko'zlari muzdek sovug sochayotganga o'xshaydi* (P.Tursun). *Karim polvon echki soqolini silab qo'ydi* (So'zlashuvdan).

7.Ad'yektivat «shaxsning biror xususiyatga ega» ekanligi ma'nosini anglatadi: *O'zi ekan nomi ketgan pahlavon, Alp Avazni ko'rdingizmi, onajon* («Zulfizar va Avazxon»). *Er yigit boshiga ish tushganda sinalar* (Maqol).

Ot turkumidagi so'zlarning konversiyasi, ya'ni sifat vazifasini bajarishidagi muhim xususiyat shundaki, ad'yektivlashgan so'zlar denotativligini saqlab turadi: *g'isht devor, sopol tovoq, choy quti, atlas ko'ylak* va hokazo.

Ot turkumidagi so'zlar konversiyasi sifat vazifasini bajarayotganda ham denotativligini saqlab turadi. Biroq bunday ot turkumidagi so'zlarning ad'yektivatlari ham konnotativlik xususiyatiga ega bo'ladi.

*Baxmal ko'ylak, baxmal to'n, baxmal do'ppi, baxmal ko'rpa* gibi birikmalar tarkibida **baxmal** so'zi sifat vazifasida kelgan bo'lsa-da, uning ot vazifasidagi denotativ ma'nosini bilinib turibdi.

Shu bilan birga, **baxmal** so'zining shoir va yozuvchilarning asarlarida o'zgacha ma'noda ham ishlatalidi: *Baxmal qirlar, // keng bo'shliqlar, // paxtazor yerlar ko'm-ko'k* (H.Olimjon). Endi shoir G'ayratiy asarlaridan keltirilayotgan quyidagi misollarga e'tibor qaratamiz: *Sokin tunda to'lgan kumush oy, // Boshin qo'yib baxmal qirg'oqqa. Jilvaga burkandi kumush qirg'oqlar, // Bag'riga tortardi baxmal o'tloqla.* (TA). Bu misralarda **baxmal** so'zi «dala va tog'larni qoplagan mayin maysalar yoki qalin o't-o'lanlar» (O'TIL-5; I,178) qabilidagi konnotativ ma'nosida qo'llangan.

*Tong oldi tinch. Yoqimsiz tunning qora baxmali* (A. Muxtor). Bu misolda **baxmal** so'zi «quyuq qorong'ulik» ma'nosini ifodalab kelmoqda.

**Baxmal** so'zi «mayin, yoqimli» ma'nosida ham ishlataligan: *Bunisi ko'p soz, // U baxmal ovoz // Saqlangan ekan // Ulug' hofizdan* (Uyg'un).

Konversiyalarning boshqa turlari singari ad'yektivatlar ham ma'noviy jihatdan o'zaro munosabatda bo'lishi tabiiy holatdir.

**Ad'yektivatlar sinonimiyasining polifunksionalligi.** Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligidagi sinonimlarni o'rganishga bag'ishlangan ishlarda ot, sifat, fe'l gibi turkumlarga oid umumiste'moldagi so'zlar haqida u yoki bu tarzda fikr bildirilgan. Biroq bunday so'zlarning ad'yektivatlari sinonimlari xususida biror fikr bildirilmagan. Vaholanki, masalan, ot turkumiga oid so'zlarning ad'yektivatlar sinonimiysi ham real voqelik bo'lib, nutq jarayonida xilma-xil vazifalarni bajaradi,

ya'ni polifunctionalligini namoyon eta oladi. Masalan, *arslon* so'zini olaylik. Besh jildli izohli lug'atda ta'kidlanishicha, mazkur so'z quyidagi ma'noni anglatadi: «Mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sute Mizuvchi hayvon, sher» (O'TIL-5; I, 100). Bu hayvonga xos shijoatlilik kishilarga nisbatan ham ko'chirilgan. Natijada mazkur so'z «bahodir, zabardast, dovyurak shaxs» ma'nosini anglatib, nutqda qo'llana boshlagan. *Arslon* so'zi sifat vazifasini bajarib, *botir* so'zi bilan matniy sinonimik qatorni tashkil etadi. Misol keltiramiz: *Yuz ming ko'klam poyondoz arslon erlar yo'liga* (G'. G'ulom).

*Sher* ham yirtqich hayvon. Shu boisdan shaxslarning qahramonligi, botirligi metafora yo'li bilan «sher»ga ko'chirilgan. Natijada mazkur so'z ko'chma, yangicha ma'nosi bilan *botir* so'zi anglatgan ma'noni ifodalab, funksional-semantik sinonimik qatorga qo'shilib qolgan. Masalan: *Harbiy xizmatga sher yigitlar chaqirilmog'i kerak* («Vatanparvar» gazetasi). Mazkur misolga qo'shimcha qilib shuni aytish lozimki, *sher* so'zi bilan *yurak* so'zining qo'shilishidan *sheryurak* qo'shma so'zi hosil qilingan. Bu so'z ham sifat vazifasini bajarib, sinonimik qatorni to'ldirishda davom etadi. Masalan: *Oq o'tovdan nariroqda cho'qqayib o'tirgan kishilar Shiroqni yaxshi tanir, uning qo'biz chalib aytgan dostonlarini ko'pmartaba tinglagan, o'zi ham o'sha dostonlarda madh etilgan sheryurak odamlardan biri ekanligini bilar edilar.* (M. Osim)

Bunday sinonimlar qatoriga *qoplon* so'zini qo'shamiz. Masalan: *Ahmad chindanam qoplon yigit ekan. Barcha raqiblarini muddatidan oldin yengib, birinchi o'rinni egalladi* («Postda» gazetasi).

Keltirilgan misollardan so'zlar vazifasining o'zgarishi, ya'ni bir turkumdan boshqa turkum «ixtiyor»ga o'tishi bilan keyingi turkum «zaxira» so'zlar hisobiga yanada boyiganligi ma'lum bo'ladi.

Ya'ni: *arslon - sher - qoplon - botir - mard - yurakli - qo'rqmas - jasur - dovyurak - arslonyurak - sheryurak*.

Demak, ad'yektivatsiya natijasida ot turkumiga mansub *arslon*, *sher*, *qoplon* so'zleri sifat vazifasini bajara boshlaydi. Muhimi shundan iboratki, *botir - mard - yurakli - qo'rqmas - jasur - dovyurak* so'zleri bilan sinonimik qatorni tashkil etgan bu so'zlar o'zlarining asl «makoni» bo'lmish turkumiga «qayta yurish» qila boshlaydi, ya'ni yana ot turkumi «safi»ga kelib qo'shiladi.

Ya'ni:

Ot sifat → →

Substantivatsiya natijasida juda ko'p sifatlar otlashishi mumkin. Ad'yektivatlar – sifatlashgan otlar ham ma'lum qonuniyatlar asosida yana substantivatsiyalashuvi mumkin. Buni *arslon*, *sher*, *qoplon* so'zleri misolida yaqqol ko'rish mumkin. Dominanti *qahramon* so'zi bo'lgan sinonimlarga murojaat qilamiz:

1. *Botir yovda bilinar, so'zchi dovda; Botir ishning boshida, yaxshi kelar qoshiga* (Maqollar).
2. *Baliq suvning chuqurini, mard ishning qiyinini izlar* (Maqol).
3. *Ammo arslon yuraklilar hech narsadan tap tortmaydilar, doimo ko'krak kerib, jangga kirishib ketishadi* («Postda» gazetasi).
4. *Qo'rqmasning oshig'i hamisha olchi* (Maqol).
5. *Jangda bilinar dovyurakning mardligi* (Maqol).

Misollarda ***qahramon - botir - mard - yurakli - qo‘rqmas - dovyurak*** sinonimik qatoridagi barcha sifatlar ot vazifasini bajarib kelyapti . Shunday ekan, ular «*safi*»ga ***qo‘shilgan arslon - arslonyurak - sher - sheryurak - qoplon*** so‘zlari ham ot vazifasini bajarish «*huquqi*»ga egadir. Misollarga murojaat qilamiz:

***Arslon:*** *Mash’um Kalon minorasidan o‘limga itarilgan el arslonlarining na’rasi qal’ani larzaga keltirmoqda* (Sh. Toshmatov).

***Arslonyurak:*** *Yigitlarning arslonyuraklari kurash maydonida bilinadi* (So‘zlashuvdan).

***Sher:*** *Erga navbat, sherga navbat.* (Maqol) [Guli:] *Alisher! Chindanam shersiz! Buyuk sher!* *Ulug‘ ishlarni qilmoq istagan er* (Uyg‘un va I. Sulton).

***Sheryurak:*** *Paxta dalalari bag‘rida fidokorlik ko‘rsatayotgan sheryuraklarning mehnati tufayli yurtimiz obod bo‘lib bormoqda* (XS).

**Ad’yektivatlar antonimiyasining polifunktionalligi.** O‘zbek tilida umumiste’moldagi so‘zlar bilan bir qatorda ot turkumidagi so‘zlearning ad’yektivatlari ham antonimik munosabatda bo‘ladi. Bunday holat esa, umuman, antonimiya haqidagi tasavvurni yanada kengaytirishga olib keladi, so‘zlearning o‘zaro munosabatini aniqlashtirishga xizmat qiladi, so‘zlearning funksional-semantik ma’nolarida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Yuqorida ot turkumidagi quyidagi ad’yektivatlarining sinonimiyasi haqida aytildi: ***qahramon – botir – mard – yurakli – qo‘rqmas – jasur – dovyurak – arslon – arslonyurak – sher – sheryurak – qoplon***. Endi mazkur sinonimik qatorning antonimik munosabatga ega ekanligiga to‘xtalamiz. Biroq bu o‘rinda mazkur o‘n ikkita sinonim so‘zlearning barchasiga mos kelaveradigan antonimlari mavjud emasligini ta’kidlab o‘tamiz. Masalan, «har qanday xavf-xatardan yoki qiyinchiliklardan qo‘rqaveradigan» ma’nosini ifodalovchi ***qo‘rqaq – yuraksiz – nomard*** sinonimik qatori shunday antonimlardan. Bunday antonimlar sifat turkumiga mansub bo‘ladi:

1. ***Qo‘rqaq ot soyasidan hurkar*** (Maqol).

2. ***Judayam yuraksiz odamsiz-da, Yusufbek, – dedi mufti*** (A. Hakimov).

3. ***Yomon odam yovdan qochar, nomard odam siring ochar*** (Maqol).

Shu bilan birga, mazkur antonimlar o‘zlarining ziddilari kabi ot vazifasini ham bajarib keladi. Misollar keltiramiz:

***Qo‘rqaq:*** *Qo‘rqaq oldin musht ko‘tarar* (Maqol).

***Yuraksiz:*** *Yonboshlab yotganlar turib o‘nglanib o‘tirdilar, ba’zi yuraksizlar orqa-o‘nglariga qarab ham oldilar* (H. Shams).

***Nomard:*** *Mard mardni deydi, nomard – nomardni* (Maqol).

Bu antonimlar qatoriga, ularning ziddilarida bo‘lganiday, hayvonlar nomidan bittasi yoki ko‘pi qo‘shiladi va sinonimik «*saf*» yangi ma’noli so‘z hisobiga ko‘payadi. Bunday holat ***quyon*** so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llanganda ro‘y beradi. Kemiruvchilar oilasiga mansub, quloqlari va orqa oyoqlari uzun bu yugurik kichik hayvon tulki, bo‘ri, arslon, sher kabi yirtqich hayvonlar, hatto burgut, qarchig‘ay kabi qushlarning ham kushandası hisoblanadi. Bunchalik ko‘p dushman uni har doim hadiksirab yurishga majbur etgan. Bunday qo‘rqaqlik shunday xarakterga ega bo‘lgan kishilarga ham ko‘chirilgan. Pirovardida, quyon qo‘rqaqlik ramziga aylanib qolgan. Misol keltiramiz: *Mayna Narzi ota bilan gurunglashishni istamasdi. Bu qari quyon biror vahimani*

*javrab, g‘ashimni keltiradi, deb indamadi* (Sh. Toshmatov). Bu o‘rinda ham yuqorida kuzatilgan holat, ya’ni hayvonlar nomiga **yurak** so‘zini qo‘shib ishlatish natijasida yangi lug‘aviy birlik yaratish usuli bilan **quyonyurak** so‘shma so‘zi hosil qilingan. U ham ayni **quyon** so‘zining ko‘chma ma’nosini ifodalaydi: *Men sizni mard, qo‘rqmas odam deb bilardim. Bilishimcha, siz haqiqatan ham quyonyurak ekansiz* («Postda» gazetasi).

O‘zbek tilshunosligida ot turkumiga oid so‘zlarning gap tarkibida xilma-xil sintaktik vazifalarni bajarib kelishi haqida batafsil fikrlar bayon etilgan. Shunday bo‘lsa-da, bu o‘rinda ot turkumidagi so‘zlarning sintaktik vazifalari xususida qisqacha ma’lumot berib o‘tish zarur, deb hisoblaymiz. Chunki otlar gap tarkibida biror sintaktik vazifani bajarar ekan, bu ularning polifunktionalligini tasdiqlovchi omillardan biri hisoblanadi. Xullas, ot turkumiga oid so‘zlar quyidagi sintaktik vazifalarni bajarib kela oladi:

1. Ega vazifasini bajaradi: *Mansur tag‘in birpas o‘ylanib turdi-yu, indamay chiqib ketdi* (O‘. Hoshimov) .
2. Kesim vazifasini bajaradi: *El qadrini el bilar, suv qadrini yer* (Maqol).
3. To‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Tunda oy nurini eltar suvlar, // Yaltirar yuzlari kumushlardek* (Oybek).
4. Aniqlovchi vazifasida keladi: *Har bir xalqning asrlar davomida sayqallangan azaliy urf-odatlari, an’ana va udumlari mavjud* («Bekajon» gazetasi).
5. Hol vazifasini bajaradi: *Sidiqjon cholni mehmonxonaga boshladi* (A.Qahhor).

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, sifat «ixtiyori»ga o‘tgan otlar, ya’ni ad’ektivatlar ham mazkur turkumdagи so‘zlar singari barcha sintaktik vazifalarni bajaradi. Aniqroq qilib aytganda, sifat turkumining o‘ziga oid so‘zları aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol, ega, kesim vazifalarini bajaradi. Biroq lisoniy materialdan kelib chiqib shuni ta’kidlash lozimki, ad’ektivatlar, asosan, sifatlovchi vazifasini bajaradi. Ularning ayrimlarigina kesim funksiyasini ham bajarishi mumkin. Shu bilan birga, ad’yektivatlarning ega, to‘ldiruvchi, hol vazifalarida kelishi kamdan-kam uchraydi.

Sifat vazifasini bajara boshlagan ot turkumiga mansub so‘zlar gap tarkibida aniqlovchining sifatlovchi turi vazifasini ham bajaradi.

Dastlab **oltin** so‘zini olib ko‘raylik. «Mendeleyev davriy sistemasining I guruhiга mansub kimyoiy element; sarg‘ish-qizg‘ish tusli qimmatbaho nodir metall; zar; tilla» (O‘TIL-5;III,118) – bu **oltin** so‘zining asl ma’nosidir. Masalan: *Bu choy qoshiq oltindan yasalgan*.

Shu bilan birga, **oltin** so‘zi sifat turkumi bajaradigan vazifalarni ham bajara boshlaydi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, metafora yo‘li bilan sifatga o‘tadi, ad’yektivlashadi. «O‘zbek xalq maqollari» da qayd etilgan, tarkibida **oltin** so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan ayrim maqollarni keltiramiz: *Elning ichi – oltin beshik; Ko‘pning ko‘lankasi – oltin; Yaxshining so‘zi – oltin; Hikmat – bir hovuch oltin; Javob oltin bo‘lsa, savol – kumush; Sabr tagi – sariq oltin; Yo‘qolgan pichoqning sopi – oltin.*

Misollardan ***oltin*** so‘zining «qimmatli, beba ho fikr, gap, so‘z, ish, vaqt, biror narsa-predmetlardan iborat bo‘lgan» ma’nosini anglatib, ya’ni ad’yektivatga aylanib, sifatlovchilik yoki boshqa vazifani bajarayotganligini payqash qiyin emas. Konkret ma’noli otlarning metafora yo‘li bilan sifat o‘rnida qo‘llanib, qayd etilgan ma’noda ishlatilish holatlari, ayniqsa, badiiy ijodkorlarning asarlarida tez-tez ko‘zga tashlanib turadi. ***Oltin*** ana shunday metaforabop so‘zlardan biri. Bunday holatda u gap tarkibida aniqlovchi vazifasini bajarib keladi.

***Oltin qalam, oltin daftar***

***Tarixingni sevib yozar*** («Yo‘qlash»).

***Yashil uva, oltin tuproq***

***Yolg‘iz mehnatniki bu choq*** («Yer kimniki»).

Bu misralar atoqli adibimiz Oybek qalamiga mansubdir. Uning she’riyatiga murojaat qilinar ekan, ad’yektivat vazifasini bajarib kelgan ***oltin*** so‘zi xilma-xil ma’nolarni ifodalash uchun ishlatilgan. Ma’lumki, asl o‘zbekcha (umumturkiy) ***oltin*** so‘zi fors-tojik tillaridan o‘zlashtirilgan ***tilla*** va ***zar*** so‘zlari bilan sinonimlashadi.

Biroq ***tilla*** so‘zining ad’yektivat ma’nosи izohida esa bunday holatning aksini ko‘rish mumkin. Bu izoh quyidagichadir: «Eng yaxshi, qimmatli yoki sevimli kishi haqida» (O‘TIL-2;II,177). Lug‘atda shu ma’noni tasdiqlovchi misollar ham keltirilgan: *Nigora ko‘rpada chalqancha yotib xayolga cho‘mdi. «Dadang bilan birga ovga ham chiqqanmiz, tilla odam edi», – dedi o’sha cho‘pon. Dadasi tilla odam bo‘lganmiyo‘qmi, Nigora bilmaydi* (S.Anorboyev) // «Jo‘ravoyni aytmaysizmi! Men odamning bunaqa ***tillasini*** ko‘rmaganman», – dedi Umrzoq ota (H. G‘ulom).

Ot turkumiga mansub ***zar*** so‘zi ***tilla*** so‘ziga nisbatan kamroq hollarda sifat o‘rnida aniqlovchi vazifasida qo‘llanadi: *Quyoshning mayin zar mo‘ynasin yopinib kuziliq uyquda* (Oybek). *U ... zar yoqa kimxob to‘n ichida yo‘g‘on gavdasi bilan odamlar o‘rtasida savlat to‘kib turibdi* (M. Ismoilov).

Ta’kidlash joizki, otlarning faqat turdosh turigina sifatlashadi, atoqli otlar esa bunday xususiyatga ega bo‘lmaydi. Shunda ham turdosh otlarning mavhum turlari emas, balki konkret ma’noli turlari mazkur vazifani bajarib keladi. Bunday polifunktionsallikning bajarilishida ot turkumidagi so‘zlarning bir qancha leksik-semantik guruhlari lisoniy material bo‘lib xizmat qiladiki, ular gap tarkibida sifatlovchi funksiyasini bajaradi. Muhimi, quyida keltirilayotgan ad’yektivatlar funksional-semantik ma’nosи bilan konnotativlik vazifasini bajara olishi, obrazlilik-ekspressivlikni ta’minlay olishi mumkinligini tasdiqlaydi:

1. Kimyoviy elementlar, minerallarning nomlari:

***Kumush***: *Kumush bulutlar quchog‘ida oy sho‘ng‘ib suzadi; Ko‘k moviy, unda - bunda bulutlar asta yozar kumush qanotlarini* (Oybek).

***Firuza // Feruza***: *Bu kun-da yugurdim, firuza bu anhor* (Oybek). *Uning yarim och ko‘zlarini musaffo, feruza osmonga qadalgan* (N. Aminov).

***Yoqut***: *Jondan go‘zaldir shu zamonalarda yoqut ko‘zlaridan o‘ta boshlayman* (Oybek).

***Po‘lat***: *Har to‘pimiz otar jahannam, O‘lim separ po‘lat burgutlar* (Oybek).

***Metin***: *Yo‘lchi tog‘aning amridan chiqmaslik uchun metin joyni kovlayverdi* (Oybek).

**Marvarid:** Dala hovlimizga marvarid gul ko 'chatidan o 'tqazgan edik, hammasi qurib ketibdi; Galaktikamizni yuz milliard yulduz marvarid to 'zonlar bezab turadi (O. Matjon).

**Mis:** Qambar ixcham, yarqiroq mis chilimni olib keldi (Oybek) .

**La'l // sadaf:** «Sizga Hayot bo 'lsa!» – dedi juvon, popukli ko 'k qarg'a shohi ro 'molchasini la 'li lablari orasida yaltirab turgan sadaf tishlari bilan qirchib (M.Ismoiliy).

**Temir:** Goho temir hukm – toj yarqirashi, gohida behudud qon tirqirashi (O.Matjon).

**Cho'yan:** [ Japaqning ] Chayir va baquvvat gavdasi chiroq shu 'lasida cho 'yan haykal kabi yiltillar edi (A. Muxtor).

2. Hayvon va qushlarning nomlari: **Mamajon lochin** yigit, serharakat, betinim (Q. Muhammadiy). **Bozorlarning ba'zilari maymun** bozorga aylanib qolibdi («Postda» gazetasi). **O'rik qiyg'os gullagan kunlari birdan havo sovib, laylak qor yog 'ib yubordi** (P. Qodirov). «**Shu itsayr degani nima, ot o 'yinimi?**» – dedi Sadriddin (Oybek). **Tabiat go 'yo biz bilan sirdosh.** **Gullarning bag 'ri qon, ohu** ko 'zi yosh (O.Matjon). **Dildora bilan erini mingboshining baqa** burun mirshabiday oldimga solib haydarab keldim (M. Ismoiliy).

3. O'simliklar, ularning qismlari, mevalari nomlari: **Men beqasam to 'n kiyib, boshimda bodom** do 'ppi, sadag'a bo 'lib ketay g 'alaba qadamiga (G'. G'ulom). **G'uncha lablarni ochib, sen sho 'x laparni kuylasang** (Oybek). **Gul Vatanning mard o 'g 'li, ko 'kragingni qalqon qil** (G'ayratyi). **[Xolmat] Obi ravon, ... pista dahan, nozik ado, pari jahon, ya 'ni ismi shariflari Jamilaxon** (Hamza). **Shu kecha Kimsanga boshpana berib, non, tut mayiz, qurut, ayron bilan mehmon qildilar** (S.Abdulla). **O'choq tomondag'i hujraning yarmini is bosgan, tokchalarda qovoq** va sopol idishlar turardi (A. Muxtor ).

4. Uy-ro'zg'or buyumlari nomlari: **Mehmonlar juda ustalik bilan pishirilgan qozon kabobni ishtaha bilan yeb, ustidan bir kosadan «kobili sho 'rva»ni ichib og 'ir nafas olishar edi** (Oybek). «**Tepamda xalta ko 'ylakli domla pochcham turar edi**», – dedi Shum bola (G'. G'ulom). **Tandir kabob juda xushxo 'r mazali taomdir** (Oybek). **Birdan shamol boshlandi, baland cho 'qqilarda ko 'karib turgan igna** barglarni shitirlatdi. (M. Muhammedov). **Nigora savat qalpog 'ini boshidan oldi-yu, ko 'zlariga bir nima tushganday darrov kafti bilan berkitdi** (S. Anorboyev).

5. Harbiy quroq-asboblarning nomlari: **Haydarov bir shop mo 'ylov odam, qo 'lni bigiz qilib o 'qtaldi** (Yu. Shomansur). **Davraka Quvondiq degan to 'pponcha polvon chiqib, aylana boshladi** (So 'zlashuvdan). **Ismi jismiga xo 'p mos, Nomi uning Jinasta. Anor yuzli, qora soch, Kamon qoshlar payvasta** (G'ayratyi). **Karimning qo 'lida uchi nayza qalam bor edi** («Postda» gazetasi).

6. Shaxslarning nomlari: **Cho'pon** yigit yashil maysazorga yonboshlab, qamish sibizg 'asini chalayotibdi (H. G'ulom). **Endigma o 'n beshga qadam qo 'ygan bu yosh qizning go 'dak ko 'nglini uncha cho 'chitmas edi** (Cho'lpon). **Nayzabardor** otliqlarning hammasi Shaharlardan esib o 'tdi yel kabi (Shayxzoda). **Cho'ri** qiz Bo 'ston... bekasining hozirgina saroydan kanizak kelib...ziyofatga olib ketganligini bildirdi

(Oybek). [Oqiljon:] Pulingizni ishlataman, yer-suv qilaman, siz **boyvachcha** xotin bo‘lib davri davron surasiz (Oybek).

7. Musiqiy asboblarning nomlari: *Bugun katta qishloqda Sunnat brigadirnikida katta nog‘ora bazm bo‘larkan* (So‘zlashuvdan).

8. Toponimlar: *Ertalab kichkina xitoy qog‘ozga yozilgan xatni olib, Seryoja Astaxov orqasiga qaytdi* (A. Rahmat). *Chumchuqlar ayrilishdan biron yuz qadam naridagi kattakon balx tutda chug‘urlamoqda* (A.Qahhor). *U [Stepan] quvongancha yugurib o‘tovga kirdi-da, ko‘ngil uchun bulg‘ori etigini kiyib chiqdi* (A. Muxtor). *Boshidagi iroqi do ‘ppisi husniga husn qo‘shardi* (Sh. Rashidov). *Mehmonning egnida banoras to‘n; hovlida hind kimxobidan to‘n kiygan, pechi zarhal kashmiri sallani boshiga qo‘ygan amir o‘ziga yaqin bo‘lgan amaldorlari bilan borar edi* (Jo‘raboyev).

9. Har xil narsa-predmetlarning nomlari: [Sharofat:] *Uvada to‘nu chilvir belbog‘ bilan kelgan eding* (A. Qahhor). *Har bir ayvonning tokchasida behisob bahmal, ipak ko‘rpachalar, bolishlar* (J.Sharipov). *Sherbek bog‘ ko‘chaga yetganda, tanish hamqishloqlariga duch keldi* (S. Anorboyev). *Rais bugun bayramlarda, to‘y hashamlarda kiyadigan charm palto va chaqmoq telpak kiyib olgan edi* (S. Ahmad). *Yana yurib ketadi sakkiz tepki gul atlas, chiviq beqasamlarning g‘ala-g‘ovur bozori* (G‘. G‘ulom). *Bilasanmi, kim u, o‘sha qiz; Osmondagi o‘sha qaldirg‘och? O‘sha qo‘rqmas va o‘sha lochin, // O‘sha dilbar, o‘sha chilvir soch* (H. Olimjon). *Yusufbek hoji egnida kimxob chopon bilan o‘rdadan chiqdi* (A. Qodiriy).

O‘zbek tilida ot turkumidagi so‘zlarning ad’yektivlashishi faol jarayon bo‘lib, ularning narsa-predmetlarni emas, balki shularning belgisini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Gap tarkibida sifat ixtiyoriga o‘tgan ot turkumidagi so‘zlar kesim vazifasini bajaradi. Kesim vazifasini bajaruvchi ad’yektivatlarning materiali quyidagi ma’noli otlardan iborat:

1. Aniq ma’noli jonsiz predmetlarning nomlari – ad’yektivatlar kesim vazifasida: *Adolat go‘zal qiz, qovoqlari bodom, qoshlari kamon* («Bekajon» gazetasi). *Odam – gavhar, qo‘li – gul; So‘zing kumush bo‘lsa, ishing – oltin* (Maqollar).

2. Aniq ma’noli jonli predmetlarning nomlari – ad’yektivatlar kesim vazifasida: *Salim o‘taketgan chayon* (Oybek). *Yurt egasi – yo‘Ibars, oldirgani qo‘ymas* (Maqol).

Xullas, ot turkumiga oid so‘zlar ko‘chma ma’nolarda qo‘llanganda, odatda, denotativ ma’noni ifodalash bilan birga, konnotativ ma’noni ham ifodalab, polifunksionallikni hosil qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirtojiyev M., N. Mahmudov N. Til va madaniyat. –Toshkent: O‘zbekiston, 1992. –B. 34-61.

2. Oybek. Asarlar. Birinchi tom. She’rlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. – 258 b.